



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi  
va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda  
zamonaviy kasblarni o‘rgatish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son qarori ijrosini ta’minlash hamda o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda biznes va kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko‘ra fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish hamda zamonaviy kasblarni o‘rgatish bo‘yicha ta’lim jarayonlarini tashkil etish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejalari va tushuntirish xatlari 2-ilovaga muvofiq;

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 3-ilovaga muvofiq;

ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida xorijiy tillar yo‘nalishi bo‘yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 4-ilovaga muvofiq;

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 5-ilovaga muvofiq;

ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biznes va kasb-hunarga o‘qitish yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarning 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasi va tushuntirish xati 6-ilovaga muvofiq;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'rgatiladigan kasb-hunarlar ro'yxati 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi (A.Mamadaliyev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda 2024-2025-o'quv yiliga qadar:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlaridan birini tanlash bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish;

so'rovnoma natijalari hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining imkoniyatlarini inobatga olib, yo'nalishlar bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ro'yxatini tasdiqlatish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirsin.

3. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova), O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi (A.Mamadaliyev), Respublika ta'lim markazi (Sh.Xudaykulov) joriy yil 1-avgustga qadar:

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqsin hamda yo'nalishlarga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalariga yetkazsin;

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan maktablarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish hamda tegishli tavsiyalarni berib borish ishlarini amalga oshirsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan maktablarning ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish, doimiy nazoratga olish va muvofiqlashtirib borish;

har chorak yakunida jarayonlar bo'yicha xulosalarni vazirlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari o'z hududida mazkur buyruqning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsan javobgar etib belgilansin.

6. Belgilab qo'yilsinki, tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan sinflardan tashqari boshqa sinflarning o'quv jarayonlari O'zbekiston

Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 26-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 94-sonli buyrug'i asosida tashkil qilinadi.

7. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2024-yil 26-mart,  
96-son

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi  
va qobiliyatiga ko'ra fanlarni chuqurlashtirib o'qitish hamda zamonaviy  
kasblarni o'rgatish bo'yicha ta'lim jarayonlarini tashkil etish  
TARTIBI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Tartib umumiy o'rta ta'lim muassasalari yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishi va qobiliyatiga ko'ra fanlarni chuqurlashtirib o'qitish, zamonaviy kasblarga yo'naltirish, o'zlari ustida mustaqil ishlash hamda qo'shimcha bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va bu borada ta'lim jarayonlarini tashkil etish vazifalarini belgilaydi.

2. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflariga tatbiq qilinmaydi.

**II. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar  
yo'nalishlarining maqsadi**

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlarini joriy etishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning individual xohish-istaklari, qobiliyatlarini inobatga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish, bunda:

o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

o'quvchilarga kasb-hunarlarni o'rganishiga keng imkoniyatlar yaratish;

maktab davridanoq o'quvchilarni xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini oshirish.

**III. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari  
faoliyatini yo'lga qo'yish**

4. 2024-2025-o'quv yilida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-sinflarida amalga oshiriladi, 2023-2024-o'quv yilida tanlov fanlari hamda kasb-hunar yo'nalishlari joriy etilgan sinflar 11-sinf sifatida davom ettiradi hamda 2024-2025-o'quv yilida ushbu sinflarning yo'nalishlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bunda, har bir yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan sinflardagi o'quvchilar soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son

qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida Nizomga muvofiq bo'lishi hamda bitta yo'nalish tashkil etilgan sinfdan boshqa yo'nalishlarni joriy etmaslik lozim.

5. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlarini tashkil etishda o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyati hamda yuqori malakali, tajribali o'qituvchilarning mavjudligi inobatga olinadi.

Agar tegishli yo'nalish bo'yicha so'rovnoma natijalariga ko'ra o'quvchilar tomonidan birorta ham yo'nalishga qiziqish bildirilmasa, yo'nalishlar bo'yicha sinflar tashkil etilmaydi va 10-sinf o'quvchilari umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja asosida ta'lim oladi.

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan **sinflarda ta'lim jarayoni** quyidagicha amalga oshiriladi:

**a) tanlov fanlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tashkil etiladi:**

matematika - fizika;  
kimyo - biologiya;  
ona tili va adabiyot - chet tili;  
matematika - chet tili.

Tanlov fani joriy etiladigan sinfdan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim jarayoni mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan o'quv rejalar asosida tashkil etiladi.

**b) xorijiy tillar yo'nalishi bo'yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarda quyidagi chet tillaridan biri ikkinchi xorijiy til sifatida tanlanadi:**

ingliz tili;  
koreys tili;  
nemis tili;  
fransuz tili;  
xitoy tili;  
yapon tili.

Xorijiy tillar yo'nalishi bo'yicha tanlov fanlari joriy etiladigan sinfdan ta'lim jarayoni mazkur buyruqning 3- va 4-ilovalari bilan tasdiqlangan o'quv rejalar asosida tashkil etiladi.

**v) biznes va kasb-hunar yo'nalishi joriy etiladigan sinflarda kasb yo'nalishi hamda qo'shimcha ravishda iqtisodiyot va biznes fani tanlanadi va bitta yo'nalish tashkil etiladi:**

biznes va kasb-hunar yo'nalishi joriy etiladigan sinflarni tashkil etishda mazkur buyruqning 7-ilovasi bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'rgatiladigan kasb-hunarlardan maktab o'zining imkoniyatlari, hududiy sharoiti va ota-onalarning fikrlaridan kelib chiqib, kerakli yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazadi.

O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, **bir yoki ikki** kasb yo'nalishi asosida bitta sinf tashkil etilishi mumkin. Agar ikkita yo'nalish asosida bitta sinf tashkil etilsa, ushbu sinfdan o'quvchilar soni kamida 25 nafar bo'lishi lozim.

Biznes va kasb-hunar yoʻnalishi joriy etiladigan sinflarda kasbiy taʼlim fani **ikki guruhga** boʻlib oʻqitiladi (iqtisodiyot va biznes fani bundan mustasno).

Iqtisodiyot va biznes fani umumiy oʻrta, oʻrta maxsus professional va oliy taʼlim muassasalarida iqtisodiyot yoʻnalishi boʻyicha joriy etilgan fanlardan dars berish huquqiga ega boʻlgan pedagog xodimlar yoki umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida "Iqtisodiy bilim asoslari" fanidan dars berish boʻyicha qayta tayyorlashdan oʻtgan pedagog xodimlar tomonidan oʻtiladi.

Biznes va kasb-hunar yoʻnalishi joriy etiladigan sinfda taʼlim jarayoni mazkur buyruqning 5- va 6-illovalari bilan tasdiqlangan oʻquv rejalar asosida tashkil etiladi.

7. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yoʻnalishlari joriy etiladigan sinf yoʻnalishi 10-sinf oʻquvchilari oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazish orqali aniqlanadi. Yoʻnalishni aniqlash uchun oʻquvchilar oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazilayotganda ota-onalar ham farzandlari bilan birga ishtirok etishi mumkin. Bunda, bir nafar oʻquvchi faqat bitta yoʻnalishni tanlaydi.

8. Oʻquvchilar oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkazish va natijasini umumlashtirish uchun maktabda tanlov komissiyasi tuziladi.

9. Tanlov komissiyasi tarkibiga oʻquv ishlari boʻyicha direktor oʻrinbosari, psixolog, amaldagi sinf rahbari, fan metod birlashma rahbari va ota-onalar qoʻmitasi raisi kiritiladi.

Bunda, tanlov komissiyasi aʼzolari tarkibiga oʻquvchilarning ota-onalari va tegishli yoʻnalishdagi fan oʻqituvchilari kiritilishiga yoʻl qoʻyilmaydi (ota-onalar qoʻmitasi raisi va fan metod birlashmalari rahbarlari bundan mustasno).

10. Soʻrovnomaning oʻtkazish va natijalarini umumlashtirish jarayonining shaffofligini taʼminlash, jamoatchilik nazoratini oʻrnatish maqsadida ushbu jarayonlarda maktabning Kuzatuv kengashi aʼzolari kuzatuvchi sifatida ishtirok etishlari mumkin.

11. Soʻrovnoma natijasi tahlil qilinib, tayyorlangan maʼlumot maktab direktoriga taqdim etiladi.

12. Soʻrovnoma natijasida tegishli yoʻnalishlar joriy etiladigan sinfda oʻqishni xohlagan oʻquvchilar soni **35 nafardan oshib** ketsa, oʻquvchilar maktab tomonidan tashkil etiladigan tegishli fan boʻyicha sinov (*nazorat ishi*) natijalari asosida qabul qilinadi.

Agar maktabda sinov (*nazorat ishi*) tashkil etiladigan boʻlsa, direktorning oʻquv ishlari boʻyicha oʻrinbosari rahbarligida ishchi guruh (*3-5 nafardan iborat*) tuziladi. Ishchi guruh tomonidan tanlangan yoʻnalishdagi fanlardan nazorat materiallari tayyorlanib, ularning maxfiyligi taʼminlangan holda oʻquvchilardan nazorat ishlari olinadi.

Sinovdan oʻta olmagan oʻquvchi anʼanaviy sinfda oʻqishini davom ettiradi va umumiy oʻrta taʼlim muassasalari uchun 2024-2025-oʻquv yiliga moʻljallangan tayanch oʻquv reja asosida taʼlim oladi.

Sinov natijalaridan norozi bo'lgan o'quvchilar uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga maktab direktori, tajribali fan o'qituvchilari, psixologlar kiritiladi. Apellyatsiya komissiyasi faoliyatini maktab direktori amalga oshiradi.

13. Ota-onalar farzandlarini tanlov fanlari yoki biznes va kasb-hunar yo'nalishlari sinfiga qabul qilishi to'g'risida direktor nomiga ariza yozadi.

O'quv yili davomida tegishli yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan sinfdan an'anaviy sinfga yoki an'anaviy sinfdan tashkil etilgan sinfga o'tishga ruxsat beriladi.

14. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan maktablardagi 10-11-sinflar "Umumta'lim muassasalari sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom"ga (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3271*) muvofiq komplektlanadi. Bunda, sinflar soni 2024-2025-o'quv yili uchun mavjud bo'lgan umumiy 10-11-sinflar sonidan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari va fan metod birlashma rahbarlari tomonidan tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan sinf yo'nalishi, o'quvchilar ro'yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar to'g'risida ma'lumot tayyorlanadi.

16. Ushbu ma'lumot maktab Pedagogika kengashida muhokama qilinib, kengashda tegishli yo'nalish joriy etiladigan sinfga mo'ljallangan o'quv reja, fan o'qituvchilari, dars taqsimoti, sinf rahbarini belgilash, o'quvchilar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

#### **IV. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlarida fanlarni ikki guruhga bo'lib o'qitish**

17. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan sinfda malakali o'qituvchilar yetarli bo'lib, o'quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lganda, chet tili, ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'zbek tili, ta'lim tili rus tili bo'lmagan umumta'lim muassasalarida rus tili, informatika va axborot texnologiyalari, chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, kasbiy ta'lim va ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitiladigan fanlar ikki guruhga bo'lib o'qitilishiga ruxsat etiladi.

#### **V. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlarida o'tilmay qolgan majburiy fanlarning baholarini qo'yish**

18. Tanlov fanlarni o'rgatishda darsliklardan tashqari, qo'shimcha adabiyot va manbalardan foydalanish mumkin.

19. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yo'nalishlari joriy etiladigan sinfda ayrim umumta'lim fanlarining dars soatlari qisqarishi evaziga amalga oshirilgan holda o'qitiladi.

20. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yoʻnalishlari joriy etiladigan sinf bitiruvchilarining umumiy oʻrta taʼlim toʻgʻrisidagi shahodatnomasiga yakuniy baholar quyidagicha qoʻyiladi:

10-11-sinflarda tegishli oʻquv reja asosida tashkil etilgan sinflarda oʻtilmagan fanlarning baholari 9-sinf tayanch oʻrta taʼlim toʻgʻrisidagi shahodatnomasidan koʻchiriladi;

21. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yoʻnalishlari joriy etiladigan sinfda oʻtilmay qolgan fanlar doirasida shakllantirilishi lozim boʻlgan koʻnikmalar turdosh fanlar hamda fan toʻgaraklarida rivojlantiriladi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

22. Tanlov fanlari hamda biznes va kasb-hunar yoʻnalishlarida oʻqitiladigan sinflarni tashkil etish yoki uni tugatish maktabning pedagogika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.



**Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida  
tanlov fanlari joriy etiladigan sinflarning 2024-2025-o'quv yiliga mo'ljallangan  
o'quv rejalari va tushuntirish xati**

**MATEMATIKA - FIZIKA YO'NALISHI**

T/r	Fan yo'nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Jami haftalik soatlar
		10-sinf	11-sinf	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>8</b>	<b>17</b>
1	Ona tili va adabiyot	4	4	8
2	Rus tili	2	2	4
3	Chet tili	3	2	5
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
4	Tarix	2	2	4
5	Davlat va huquq asoslari	1	1	2
6	Tarbiya	1	1	2
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>10</b>
7	Matematika	5	5	10
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>6</b>
8	Fizika va astronomiya	1	2	3
9	Geografiya va iqtisodiyot	2	1	3
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
10	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	1	1	2
<b>Jami</b>		<b>22</b>	<b>21</b>	<b>42</b>
<b>Tanlov fanlar</b>				
1	Matematika	5	5	10
2	Fizika	4	4	8
<b>Jami soat</b>		<b>9</b>	<b>9</b>	<b>18</b>
<b>Umumiy soat</b>		<b>31</b>	<b>30</b>	<b>61</b>

## Matematika-fizika yo‘nalishiga tushuntirish xati

1. Matematika-fizika yo‘nalishi 10-11-sinflarga mo‘ljallangan bo‘lib, ushbu o‘quv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

### **2. 10-11- tanlov sinflarida quyidagi 10 ta majburiy fanlar o‘qitiladi:**

3. “Ona tili va adabiyot” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda haftasiga 2 soatdan “Ona tili”, 2 soatdan “Adabiyot” fani o‘qitiladi.

4. “Rus tili” fani 10-11-sinflarda haftasiga 2 soatdan o‘qitiladi.

5. “Chet tili” fani 10-sinfda haftasiga 3 soatdan, 11-sinfda haftasiga 2 soatdan o‘qitiladi.

6. “Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:  
10-11-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

7. “Davlat va huquq asoslari” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

8. “Tarbiya” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

9. “Matematika” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda “Algebra” fani haftasiga 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan o‘qitiladi.

10. “Fizika va astronomiya” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:  
10-sinfda “Fizika” fani haftasiga 1 soatdan, 11-sinfda haftasiga 2 soatdan o‘qitiladi. Bunda, 11-sinfda haftasiga 0,5 soat “Astronomiya” faniga beriladi.

11. “Geografiya va iqtisodiyot” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

10-sinfda “Geografiya” fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

12. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

### **13. Tanlov fanlarining haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:**

10-11-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan o‘qitiladi.

Unga ko‘ra, 10-11-sinflarda 3 soatdan “Algebra”, 2 soatdan “Geometriya” fanlari o‘qitiladi.

10-11-sinflarda **“Fizika”** fani haftasiga 4 soatdan o‘qitiladi.

14. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib beriladi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan

va “Fizika” fanidan 1 soat jami **9 soat olinib**, tanlov fanlari “Matematika” faniga 5 soat, “Fizika” faniga 4 soat beriladi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, “Fizika” va “Astronomiya” fanlaridan 0,5 soatdan jami **9 soat olinib**, tanlov fanlari “Matematika” faniga 5 soat, “Fizika” faniga 4 soat beriladi.

15. Matematika-fizika yo‘nalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashg‘ulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport to‘garaklari shaklida tashkil etiladi.

**KIMYO - BIOLOGIYA YO‘NALISHI**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Jami haftalik soatlar
		10-sinf	11-sinf	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>8</b>	<b>17</b>
1	Ona tili va adabiyot	4	4	<b>8</b>
2	Rus tili	2	2	<b>4</b>
3	Chet tili	3	2	<b>5</b>
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
4	Tarix	2	2	<b>4</b>
5	Davlat va huquq asoslari	1	1	<b>2</b>
6	Tarbiya	1	1	<b>2</b>
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>10</b>
7	Matematika	5	5	<b>10</b>
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>4</b>
8	Fizika va astronomiya	1	1	<b>2</b>
9	Geografiya va iqtisodiyot	1	1	<b>2</b>
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
10	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1	<b>2</b>
<b>Jami</b>		<b>21</b>	<b>20</b>	<b>41</b>
<b>Tanlov fanlar</b>				
1	Kimyo	5	5	<b>10</b>
2	Biologiya	5	5	<b>10</b>
<b>Jami soat</b>		<b>10</b>	<b>10</b>	<b>20</b>
<b>Umumiy soat</b>		<b>31</b>	<b>30</b>	<b>61</b>

## Kimyo-biologiya yoʻnalishiga tushuntirish xati

1. Kimyo-biologiya yoʻnalishi 10-11-sinflarga moʻljallangan boʻlib, ushbu oʻquv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

**2. 10-11- tanlov sinflarida quyidagi 10 ta majburiy fanlar oʻqitiladi:**

3. “Ona tili va adabiyot” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda haftasiga 2 soatdan “Ona tili”, 2 soatdan “Adabiyot” fani oʻqitiladi.

4. “Rus tili” fani 10-11-sinflarda haftasiga 2 soatdan oʻqitiladi.

5. “Chet tili” fani 10-sinfda haftasiga 3 soatdan, 11-sinfda haftasiga 2 soatdan oʻqitiladi.

6. “Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi: 10-11-sinflarda “Oʻzbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

7. “Davlat va huquq asoslari” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

8. “Tarbiya” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

9. “Matematika” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda “Algebra” fani haftasiga 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan oʻqitiladi.

10. “Fizika va astronomiya” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda “Fizika” fani haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi. Bunda, 11-sinfda haftasiga 0,5 soat “Astronomiya” faniga beriladi.

11. “Geografiya va iqtisodiyot” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

10-sinfda “Geografiya” fani haftasiga 1 soatdan, 11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soatdan oʻqitiladi.

12. “Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

**13. Tanlov fanlarining haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:**

10-11-sinflarda “Kimyo” fani haftasiga 5 soatdan oʻqitiladi.

10-11-sinflarda “Biologiya” fani haftasiga 5 soatdan oʻqitiladi.

14. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib beriladi:

10-sinfdagi tanlov fanlari uchun 10-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, “Fizika” va “Geografiya” fanlaridan 1 soatdan jami **10 soat olinib**, tanlov fanlari “Kimyo” faniga 5 soat, “Biologiya” faniga 5 soat beriladi.

11-sinfdagi tanlov fanlari uchun 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari”, “Kimyo”, “Biologiya”, “Jismoniy tarbiya” fanlaridan 2 soatdan, “Fizika” fanidan 1,5 soat va “Astronomiya” fanidan 0,5 soat jami **10 soat olinib**, tanlov fanlari “Kimyo” faniga 5 soat, “Biologiya” faniga 5 soat beriladi.

15. Kimyo-biologiya yoʻnalishi joriy etiladigan sinflarda jismoniy tarbiyaga oid mashgʻulotlar darsdan tashqari vaqtlarda sport toʻgaraklari shaklida tashkil etiladi.

**ONA TILI VA ADABIYOT - CHET TILI YO‘NALISHI**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Sinflar kesimida		Jami haftalik soatlar
		10-sinf	11-sinf	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>8</b>	<b>17</b>
1	Ona tili va adabiyot	4	4	<b>8</b>
2	Rus tili	2	2	<b>4</b>
3	Chet tili	3	2	<b>5</b>
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>8</b>
4	Tarix	2	2	<b>4</b>
5	Davlat va huquq asoslari	1	1	<b>2</b>
6	Tarbiya	1	1	<b>2</b>
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>10</b>
7	Matematika	5	5	<b>10</b>
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>6</b>
8	Fizika va astronomiya	1	2	<b>3</b>
9	Geografiya va iqtisodiyot	2	1	<b>3</b>
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>
10	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1	<b>2</b>
<b>Jami</b>		<b>22</b>	<b>21</b>	<b>43</b>
<b>Tanlov fanlar</b>				
1	Ona tili va adabiyot	5	5	<b>10</b>
2	Chet tili	4	4	<b>8</b>
<b>Jami soat</b>		<b>9</b>	<b>9</b>	<b>18</b>
<b>Umumiy soat</b>		<b>31</b>	<b>30</b>	<b>61</b>

## Ona til va adabiyot - chet tili yoʻnalishiga tushuntirish xati

1. Ona til va adabiyot - chet tili yoʻnalishi 10-11-sinflarga moʻljallangan boʻlib, ushbu oʻquv reja 2 qism (majburiy fanlar va tanlov fanlari)dan iborat.

### **2. 10-11- tanlov sinflarida quyidagi 10 ta majburiy fanlar oʻqitiladi:**

3. “Ona tili va adabiyot” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda haftasiga 2 soatdan “Ona tili”, 2 soatdan “Adabiyot” fani oʻqitiladi.

4. “Rus tili” fani 10-11-sinflarda haftasiga 2 soatdan oʻqitiladi.

5. “Chet tili” fani 10-sinfda haftasiga 3 soatdan, 11-sinfda haftasiga 2 soatdan oʻqitiladi.

6. “Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda “Oʻzbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

7. “Davlat va huquq asoslari” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

8. “Tarbiya” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

9. “Matematika” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda “Algebra” fani haftasiga 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan oʻqitiladi.

10. “Fizika va astronomiya” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

10-sinfda “Fizika” fani haftasiga 1 soatdan, 11-sinfda haftasiga 2 soatdan oʻqitiladi. Bunda, 11-sinfda haftasiga 0,5 soat “Astronomiya” faniga beriladi.

11. “Geografiya va iqtisodiyot” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

10-sinfda “Geografiya” fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soatdan oʻqitiladi.

12. “Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik” fani 10-11-sinflarda haftasiga 1 soatdan oʻqitiladi.

### **13. Tanlov fanlarining haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:**

“Ona tili va adabiyot” fani uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

10-11-sinflarda haftasiga 2 soatdan “Ona tili”, 3 soatdan “Adabiyot” fani oʻqitiladi.

10-11-sinflarda “Chet tili” fani haftasiga 4 soatdan oʻqitiladi

14. Tanlov fanlari uchun ajratilgan haftalik oʻquv soatlar quyidagi fanlar soatidan olib beriladi:

